

YAKKABOG‘ SHEVAGASIGA XOS SO‘ZLAR

Jumayeva Farangiz

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Sheva (fors- harakat tarzi, tarz usul) - tilning fonetik, grammatik va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi sezilarli lisoniy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda qishloqda) yashovchilarning so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llaniladi. Ma‘lumki, shevalarimiz taqiqi tarixi xx (20-asrning) yillariga borib taqaladi va bugungacha davom etmoqda. Negaki shevalarni tadqiq etishga qiziqishning umumiy sabablari til istiqboliga aloqadordir. Biz milliy tilimizni ham adabiy til, ham sheva, ham milliy til ma‘nolarida tushunamiz. Adabiy tilning o‘ziga xos taraqqiyot bosqichi borligi shubhasiz aniq, ammo shevalarimiz lahjalarimizning taraqqiyoti va rivojlanish masalasi bahslidir.

Kalit so‘zlar: Sheva, lahja, Yakkabog‘, adabiy, qarluq.

Sheva tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar yil sayin zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti soyasida qolib ketayotgani sir emas. Mustaqillik yillarida soha rivojiga rivojiga xizmat qiluvchi sezilarli tadqiqotlar bajarilgan. Biroq bu tadqiqotlar salmog‘i o‘zbek shevalarini to‘laonli tekshirishga va ularning lisoniy aniqlashga imkon bergani yo‘q.

Hozirgi zamon tilshunoslikda dialekt va etnografizmlarni keng ko‘lamda ilmiy asosda o‘rganish ustuvor va dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Sababi hozirda dialekt va etnografizmlarni entolingvistik va lingvo madaniy aspektda o‘rganish muhim tadqiqot zaruriyati bo‘lib kelmoqda. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan ajralib turadi. Professor Y.D. Polivanov asrimizning birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o‘zining ilmiy ishlarida ma‘lumot berib o‘tgan. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtdagi jonli sheva etnografizmlarni yozma yodgorliklarda, shuningdek, hozirgi adabiy tilimizda ham uchramaydigan ko‘pgina so‘z va so‘z formalari lug‘aviy birliklarni o‘zida saqlab qolganki ularni asosli ravishda o‘rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda yordam beradi. " Agar zudlik bilan keksa avlod nutqida saqlanib kelinayotgan noyob so‘z va iboralar yig‘ib olinmasa barcha mas‘uliyatni o‘z zimmamga olib aytamanki ular hofizasidagi bir qism dialektizmlar umuman yo‘qolib ketishi mumkin", - degan edi akademik Sh. Shoabdurahmonov. Olimning aytgan fikri hozirgi vaqtga kelib ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bizga ma‘lumki, o‘zbek tili qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarini o‘z ichiga oladi. Bu lahjalar o‘zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan bir -

biridan farqlanadi. Jumladan qarluq, lahjasi boshqa shevalardan "e"lovchi, "o" lovchi, "u" lovchi hamda "i" lovchiligi bilan farqlanadi.

Qarluq shevasi akademik Sh.Shoabdurahmonov, V.Reshetov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Qashqadaryo hududi shevalari esa B.Jo'rayev, X. Jabborov, T. Qudratov, N.Shoyimovalar tomonidan tadqiq etilgan. Ular o'z ilmiy ishlarida Qashqadaryo qipchoq lahjasining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berganlar. Ammo bugungi kungacha Qashqadaryo viloyatining qarluq shevasi o'rganilmagan. Fandagi mana shu bo'shliqni to'ldirish uchun Yakkabog' tumani misolida qarluq shevasini yoritib berishga harakat qildik. O'rganilayotgan Qashqadaryo viloyati hududida asosan qarluq va qipchoq shevalarida gaplashishadi. Shu jumladan Qarshi shahri Yakkabog', Shahrisabz, Kitob tumanlari aholisining aksariyat qismi qarluq lahjasida muloqat qilishadi. Biz tadqiq qilayotgan Yakkabog' tumanida istiqomat qiluvchi aholi ham qarluq lahjasida gaplashadilar va ularning orasida dialektal farqlar kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yakkabog' tumanida yashovchi aholi shevasi va o'zbek adabiy tilini taqqoslash asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish kerak va buni tegishli lug'atlarda aks ettirish lozim. Ushbu shevaga xos so'zlarni o'zbek tilining hududiy lug'atlariga doimiy ravishda qo'shib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi . - Toshkent, Nodirabegim. 2021.176 b.
2. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek shevalari. - Toshkent , Fan. 1962. 370 b.
3. Rashetov V , Shoabdurahmonov Sh . O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent, O'qituvchi. 1978. 231 b.